



USMON AZIM IJODIDA METAFORALARNING O'ZIGA XOS KO'RINISHLARI

R.K. Fayziyeva¹

¹Buxoro davlat universiteti

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5998952>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 -fevral 2022

Ma'qullandi: 05 -fevral 2022

Chop etildi: 10 - fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

Usmon Azim, Ko'chim, metafora, lingvopoetik vosita, jonlashtirish, qofiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Usmon Azim she'riyati, uning badiiy mahorati, badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lmish ko'chim-metaforalarning turlari, ijodkorning o'ziga xos uslubi haqida aytib o'tilgan.

Usmon Azim ijodida faol qo'llanuvchi lingvoetok vositalardan biri metaforalardir. Tilimizda metafora deyilganda narsa-buyum, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi tushuniladi. Metaforaning paydo bo'lishi va lingvopoetik vosita sifatida sifatida amalda bo'lishiga e'tibor berilsa, bir qator jihatlar borligi ko'zga tashlanadi. Avvalo, metafora nut jarayonida hosil bo'ladi. Uning shakllanishi to'g'ridan to'g'ri insonning fikrlash doirasi, tafakkur qamrovi bilan bog'liq. Metafora- jonlantirish, jonsiz narsa-hodisalarga insonga xos- xususiyatlarni, metafora- predmetlashtirish esa tashqi olamdagi narsa- hodisalarga xos-xususiyatlar ichki olam hodisalariga - ma'naviy-ruhiy tushunchalarg ko'chirilishi nazarda tutiladi. Masalan, " Yana keldi erkatoiy ko'klam" deyilganda bahorga munosabati yaqqol ifodalanganki, bu

poetik metaforaga xos ekspressivlikdir. Yoki qish bo'yi bahorni intiq kutgan kapalakning vasli shirinroq satridagi ekspressivlik o'quvchini shoirga hamfikir qiladi.

Kuzatishlar natijasi-da Usmon Azim she'riyatida qiyos obyektlari va ma'no ko'chish yo'nalishiga qarab metaforaning to'rt turi qo'llanganligini ko'rsatadi:

- 1) insonga xos xususiyatlarni jonsiz narsa- hodisaga ko'chirish;
- 2) predmet xususiyatini inson ruhiy olami bilan bog'liq yoki tashqi olamdagi abstrak tushunchalarga ko'chirish;
- 3) ma'noni jonli narsadan jonsiz narsaga ko'chirish;
- 4) jonsiz predmetdan jonsiz predmetga ko'chirish asosidagi yuzaga keluvchi metaforalar.

Metaforaning mazkur xillari qo'llanish faolligiga ko'ra bir xil emas, ularning faolligi ro'yxatdagi tartibga mos keladi. Metafora-jonlantirish - eng faoli, metafora



predmetlashtirish unga qaraganda sustroq.

Metaforaning ifodalanishi, turli til birliklari (ot, fe'l, sifat, ibora) bilan ifodalangandagi o'ziga xosliklari ma'lum. Shuningdek, metaforaning konteks bilan bog'liq holda voqe bo'lishi, bu jarayon bosqichlari va ruhiy mexanizmi; o'xshatish va zidlash orqali hosil bo'luvchi metaforalar Usmon Azim she'riyatida ko'p uchraydi.

Quyidagi misolda so'zlovchi o'z sevgilisi bo'lgan eng nozik his-tuyg'ularni ifodalashda badiiy adabiyotdagi eng ko'p qo'llanuvchi an'anaviy usullardan biri - metaforalardan foydalangan. So'zlovchi o'z sevgilisiga nomini aytib murojaat qilmay, unga to'g'ridan to'g'ri "gulim" deb murojaat qiladi.

...Gulim, sovuq boqma, qo'rqaman,
Qo'rqaman boz bo'ladi paydo -
Olti qit'a, to'rt bahri ulkan,
Huvillagan dahshatli fazo...

Ushbu parchaga diqqat qarataylik, shoir o'z sevgilisi nomi bilan atamay, "gulim" deya murojaat etadi. Bunda jonli shaxsga xos xususiyatlar jonsiz predmetga o'tyapti. Bu metaforaning eng ko'p tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Birinchi misraning o'zi qayta diqqat qarataylik: "sovuq boqma" boqma jumlasidan ko'chma ma'no bor, ya'ni boqishning issiq sovug'i bo'lmaydi. Keyingi uchinchi va to'rtinchi misralar ham diqqatga sazovordir.

"Olti qit'a, to'rt bahri ulkan" deyish orqali butun koinotni, kurrayi zaminni tasvirlagan. Keyingi misolga qaraylik:

Agar tasodif bo'lib,

Anov shofyorning qo'li
Ozgina qaltirasa,
Olamda yo'qman, gulim

Ushbu parchada esa shoir hozirgi davr uchun g'oyatda dolzarb bo'lgan masalani qalamga oladi. Hozirgi kunda avtomobil haydovchilarning e'tiborsizligi sabab, yoxud qoidalarga rioya qilmaganliklari uchun ko'plab avtohalokatlar ro'y bermoqda. Shoir ham mana shu holatni qalamga tushirgan, haydovchining birgina qo'l harakati orqali "olamda yo'qman" ya'ni "vafot etishi"ni tasvirlamoqchi. Bu parchada ham o'z sevgilisini tog'ridan to'g'ri nomlamay "gulim" deya ifodalagan.

Men nechun yongan dilimni
so'ndirolmayman, gulim,
Kul bo'lishga qismatimni
ko'ndirolmayman, gulim,
Kim bilur otashga yongan kunlarimni
qadrini,
Kecha qalblarni nuriga to'ldirolmayman,
gulim.

Ushbu parchada ham yuqoridagi ikki misol singari yori "gul" deya tasvirlagan. Lekin ushbu parchani tahlil qiladigan bo'lsak, misralarda "so'ndirolmayman, ko'ndirolmayman, to'ldirolmayman" so'zlari o'zaro qofiyalanib kelgan. Ushbu qofiyadosh so'zlardan keyin kelgan "gulim" so'zi esa radif bo'lib kelgan. Har bir misraning mazmun mohiyatiga diqqat qaratsak, birincha misrada "yongan dil" jumlasida ham ko'chma ma'noda qo'llanib k'chimning bir turini yuzga keltirgan. Ikkinchi misrada qismatning kul bo'lishi, uchinchi misrada otashda yonga yongan kunlarim, oxirgi misrada esa qalblarni nurga to'ldirish kabi jumlar ko'chma



ma'noda qo'llangan va ko'chimning rang barang ko'rinishlarini hosil qilgan.

Gul metaforasi shoir ijodida faolligi bilan ajralib turadi. Bu metafora she'rdan she'rga ko'chib poetik obrazlilikni, ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

- Shamollarga dardini

Kulib so'ylagan, ey, gul,

Mening sovuq bag'ringa

Qadam qo'ymagan, ey, gul-

Bir tosh bo'lib yoningda o'tganimda baxtliman!

Adabiyotda eng ko'p murojaat qilinadigan lingvopoetik vositalardan biri metafora hisoblanadi. Yuqoridagi misoldan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o'rtasida o'xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko'chiradi va shu tariqa nom ko'chish hodisasi yuzaga keladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda ishtirok etgan "gulim" so'zining metaforik ma'no deyish mumkin, chunki mazkur misolda metafora va gul va odamning tashqi jihatdan o'xshashligi, go'zalligi, beg'uborligi asosida hosil bo'lgan. Lekin shuni ham qayd etish kerakki, gul so'zining yuqorida keltirilgan ma'nosi adabiy tilimizning doimiy metaforaga aylanib ulgurmagan. Shunga ko'ra yuqorida keltirilgan misolda gul metaforasi mazkur matndan tashqarida olib qaralganda nutqning ifodaliligi nuqtayi nazardan ma'lum bir uslubiy qimmat kasb etmaydi.

Ko'rinadiki, metafora sifatida tanlangan til birligining bu hodisa mohiyatiga qanchalik mos kelishi, qanchalik yangi ekanligi, poetik ta'sirchanligi matnning mazmunan boyligi, ifodali bo'lishini

ta'minlaydi. Barcha so'z san'atkorlari, ijodkorlari qatorida Usmon Azim ham o'z she'rlarida tilimizning poetik ta'sirchan, obrazli so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali she'riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go'zal bo'lishiga muvaffaq bo'lgan. Quydagi misolda buni yana bir marotaba ko'rish mumkin:

Qancha shirin damdan kechmog'im mumkin

Faqat sen o'ynagin, quvongin, kulgin.

Sen mening taqdirim, oxir azalim,

Sen mening bahorim, oyim, go'zalim.

Ushbu to'rt misrani bir o'qishda kishini o'ziga rom etadi, chunki parchada shoir ko'chim-metaforalardan foydalangan. Misralardagi "Shirin dam", "taqdirim", "oxir azalim", "bahorim", "oyim", "go'zalim" kabi jumlar metafralarning o'ziga xos, takrorlanmas turlarini hosil qilgan.

Metaforalar, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq holda she'rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Agar matnda lingvoetik vosita o'rinli qo'llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo'yoqlarda o'quvchi yoki tinglovchi ko'z oldida aks etadi.

Bo'yoqdorlik va ta'sirchalik asosida metaforik ma'no hosil qilish badiiy matnlarda qo'llanuvchi lingvopoetik



vositalarga xos xususiyat hisoblanadi. Usmon Azim ijodida qo'llangan metaforalarda shoirning salbiy va ijobiy munosabatda bo'lishi she'rida kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday fikrlar vositasida unga munosabat bildirishiga bog'liq bo'ladi. Shoir quydagi she'rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metaforalarni qo'llaydi:

Endi mendan ketdi ixtiyor!

Yuragimni qo'yib kaftimga Shivir layman
besabr,

takror:

Qiblanamom, yo'l ko'rsat menga

Mana bu parchada esa yorga nisbatan to'g'ridan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmay, balki unga nisbatan kutilmagan metaforalardan foydalangan:

Xavotir ichinda deding "Men keldim..."

To'xtading, Xo'rsinding, Jo'nading shitob.

Kuzgi chorbog` aro yo`qolding, yitding,

Atlas liboslarga belangan sarob

Metaforalarning o'ziga xos xususiyatlari

badiiy matn doirasida qaraluvchi she'riy

asarlarda bo'rtib turadi. Shuning

uchun Usmon Azim ijodida qo'llanilgan

metaforalarning o'ziga xos jihatlari

aniqlashda ularning shoir she'riyatida

tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratish

lozim. She'riy matnlarda Usmon Azim

boshqa lingvopoetik vositalar qatori

metaforalarni qanday maqsadda

qo'llanishga qarab bu vositaning

bajaradigan vazifasi va badiiy estetik

qimmatini belgilashi mumkin. Usmon

Azim o'z she'riyatida metaforalarni

qo'llashda shu vositaning bajaradigan

vazifasi va badiiy estetik qimmatini

ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008, -175 bet.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981, -60 бет.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987, – 88 бет.
4. Азим Усмон. Сайланма: Шеърлар. -Тошкент: Шарқ, 1995.
5. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962.
6. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. -Тошкент, 2010.
7. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.
8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. - Самарқанд: Зарафшон, 1992, – 140 бет.